



TURKISTAN ENLIGHTENERS AND HIGHER EDUCATION INTEGRATION: THE ROLE OF MUKHTOR BAKIR IN THE ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE PEOPLE'S UNIVERSITY

Muhriddin Azimovich Rahmatov

basic doctoral student of National University

Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: muhriddinrahmatov@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Darilfunun, public enlightenment, darilmuallimin, rector, chief secretary, delegate, history, geography, political economy.

Received: 14.01.26

Accepted: 15.01.26

Published: 16.01.26

Abstract: This article analyzes the enlightenment movement in Turkestan at the beginning of the 20th century and the formation of the higher education system in the region. The study aims to highlight the role of the enlightened intellectual Mukhtor Bakir in the establishment of the Turkestan People's Darilfunun and his contribution to improving the institutional structure of the university. The research describes methods of historical-comparative analysis and the study of periodical press materials. Furthermore, the significance of the "People's Darilfunun" in the development of social equality and education in society is emphasized.

The findings indicate that Mukhtor Bakir was a key figure in initiating the training of national intellectuals and adapting educational curricula to the specific needs of the Turkestan region.

TURKISTON MA'RIFATPARVARLARI VA OLIY TA'LIM INTEGRATSIYASI: MUXTOR BAKIRNING XALQ DORILFUNUNI TASHKILY TUZILMASIDAGI ROLI

Muhriddin Azimovich Rahmatov

Tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: muhriddinrahmatov@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Dorilfunun, xalq maorifi, dorilmuallimin, rektor, sarkotib, delegat, tarix, geografiya, siyosiy-iqtisod.

Annotatsiy: Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi Turkiston oʻlkasida kechgan maʼrifatparvarlik harakati va Turkiston zaminida oliy taʼlim tizimining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Turkiston Xalq dorilfununining tashkil etilishida maʼrifatparvar ziyoli Muxtor Bakirning tutgan oʻrni va uning muassasa tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishdagi hissasini yoritib berishdan iborat. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil va vaqtli matbuotdagi maʼlumotlar oʻrganish metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, “Xalq dorilfununi”ning jamiyatda ijtimoiy tenglik va maʼrifatning rivojlanishidagi rolga ahamiyat berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Muxtor Bakir dorilfunun tarkibida milliy ziyolilarni tayyorlash va oʻquv dasturlarini Turkiston hududi ehtiyojlariga moslashtirishda tashabbus koʻrsatgan shaxslardan biridir.

ПРОСВЕТИТЕЛИ ТУРКЕСТАНА И ИНТЕГРАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: РОЛЬ МУХТАРА БАКИРА В ОРГАНИЗАЦИОННОЙ СТРУКТУРЕ НАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

Мухриддин Азимович Рахматов

Базовый докторант

Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

E-mail: muhriddinrahmatov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Дарилфунун, народное просвещение, дарилмуаллимин, ректор, главный секретарь, делегат, история, география, политическая экономия.

Аннотация: В данной статье анализируется просветительское движение в Туркестанском крае в начале XX века и процессы формирования системы высшего образования в регионе. Целью исследования является освещение роли просветителя-интеллектуала Мухтора Бакира в создании Туркестанского Народного Дарилфунуна и его вклада в совершенствование организационной структуры учреждения. В работе использованы методы историко-сравнительного анализа и изучения материалов периодической печати того времени. Особое внимание уделяется роли «Народного Дарилфунуна» в развитии социального равенства и просвещения в

обществе.

Результаты исследования показывают, что Мухтор Бакир был одним из инициаторов подготовки национальных кадров и адаптации учебных программ Дарилфунуна по отношению к потребностям Туркестанского региона.

Kirish. Rossiya imperiyasi zamonida o'rta va oliy maktablardan asosan boy qatlam vakillari foydalanar edi. Xalqning quyi qatlam vakillari uchun "dorilfunun" (universitet) kabi oliy o'quv yurtlari erishib bo'lmas orzu edi. Turkiston o'lkasi musulmonlari bir tomondan hukumat tomonidan taziqqa uchrasalar, ikkinchi tomondan ilmning imkoniyatlarini yetarli anglamaganliklari sababli na madrasalardan, na o'z maktablaridan to'laqonli foydalana olmaganlar.

1917-yil Oktabr inqilobidan so'ng, Rossiya imperiyasining mustamlaka xalqlari, xususan, turkistonliklar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. 1917-yilning 27-noyabrda Turkiston muxtoriyati tuzilib kam yashagan bo'lsa-da, ularning xalq maorifi uchun qilgan islohotlari muxtoriyat tugatilgandan keyin ham yashadi. Bunga misol tariqasida xalq uchun bepul ta'lim tizimi yo'lga qo'yilishi, endilikda kambag'al insonlarning farzandlar ham oliy ta'lim muassasalariga kirish huquqiga ega bo'lganliklarini keltirib o'tish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili o'zining ahamiyati va bir qancha tarixiy masalalar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi sababli ushbu mavzuga oid manba va adabiyotlarni tasniflashda, avvalo, birinchi manbalarga to'xtalib o'tish muhim hisoblanadi. Muxtor Bakir Xalq dorilfununiga oid 10 dan ortiq maqolalarni vaqtli matbuotda e'lon qilgan. Bu asarlarda muallif Xalq dorilfununining tashkil topishi, uning tashkiliy vazifalari va ichki tartib qoidalari haqida ma'lumotlar bergan. Xalq dorilfununi va Muxtor Bakirning faoliyati bo'yicha izlanish olib borgan o'zbekistonlik olimlardan E.Yusupov, R.Abdullayev, A.Rasulov, A.Isoqboyev, Nasretdinova D.M, Madyarova S, Tursunov R, B.Qosimovlardir. Shuningdek, chet ellik olimlardan Edward Allworth, Ingeborg Baldauf, Adeeb Khalid kabilar ilmiy faoliyat olib borganlar.

Tahlil va natijalar. 1918-yil aprel oyida Turkiston xalq dorilfununini tashkil qilish bo'yicha ishlar boshlanadi. Bu davr mobaynida bir qancha kengashlar bo'lib o'tadi. Munavvar qori Abdurashidxonov Musulmon xalq dorilfununini tashkil etish maqsadida 9 ta a'zodan iborat tashkilot komissiyasini shakillantiradi. Bunga ko'ra, Munavvar Qori (rais), Burhon Habib, Iso To'xtaboyev, Sodiq Abdusattorov, Murodbek, Murodxo'ja, Muxtor Bakir, Abdusami Qori Ziyoboyev va boshqalar a'zo bo'lganlar[Muxtor Bakir, 1918].

Komissiya Musulmon xalq dorilfununini ham shu davrda rus tizimi asosida tuzilgan Turkiston Xalq dorilfununi kabi uch bosqichda tashkil qilgan. Yuqori bosqich–dorilmuallimin (o‘qituvchilar instituti); o‘rta bosqich–o‘rta hunar maktablari: quyi bosqich–boshlang‘ich maktablardan iborat etib belgilanadi. 3-may kuni Musulmon xalq dorilfununi rahbariyatiga saylov bo‘lib o‘tadi. Unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To‘xtaboyev rektorning birinchi o‘rinbosari, Burhon Habib ikkinchi o‘rinbosarlari, Abdusami Qori Ziyoboyev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadi. Muxtor Bakirning vazifasiga quyidagilar kirgan:

Talabalarni o‘qishga qabul qilish hujjatlarini yuritish.

O‘quv rejalari va dars jadvalini muvofiqlashtirish.

Yangi tashkil etilgan bo‘limlar (mudarrislik, hunar maktablari va boshlang‘ich ta‘lim) o‘rtasidagi aloqani ta‘minlash[Muxtor Bakir, 1918].

1918-yil 12-may kuni eski Toshkent dahasidagi Vikula Morozov magazini binosida Musulmon xalq dorilfununining tantanali ochilish marosimi bo‘ladi. Majlisda taxminan besh yuz kishi ishtirok etgan. Bunda ishchilar, zahmatkashlar, ziyolilar, hukumat vakillari, har bir tashkilotlardan delegatlar, muallimlar, ziyoliy xonimlar, mudarrislar, qozilar qatnashgan. Shuni ham ta‘kidlash joizki, ruslardan 60-70 kishi bu tadbirda bo‘lgan[Muxtor Bakir, 1918]. Ochilish marosimini Munavvar Qori qisqacha kirish so‘zi bilan ochib, musulmonlar rus imperiyasi davrida rus yo‘qsillari bilan birgalikda yarim asr qullikda yashagani, ayni damda ozodlik va tantana katta talofatlar bilan qo‘lga kiritilganligini ta‘kidlaydi. Shundan so‘ng bu kurashlarda halok bo‘lganlarga bag‘ishlab, Qur‘oni karimdan tilovat o‘qilib, fatvo beriladi. Musulmon xalq dorilfununi Munavvar Qori rahbarligida katta bilim va ziyo maskaniga aylanadi. Bu tashkilot 15 ta madaniy-ma‘rifiy tashkilot vakillaridan uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqarilgan. Unda faoliyat yurituvchi muallimlar soni 180 nafarga yetadi. Toshkentdagi musulmonlar sho‘basi qoshida 10 dan ortiq ibtidoiy maktab va 2 ta hunar maktabi faoliyat yurita boshladi. Unda 75 dan ortiq o‘qituvchi va 700 dan ziyod o‘quvchi tahsil olgan. Ibtidoiy maktablarda o‘quvchilarga ona tili, o‘qish, yozish, hisob, tarix, geografiya, axloq, dehqonchilik, bog‘dorchilik singari amaliy fanlar o‘rgatilgan.[O‘zMU, 2000]

Xotin-qizlar uchun ochilgan maktablarda esa o‘qish va yozish bilan bir qatorda qo‘l mehnati, kasanachilik va hunarlar ham o‘rgatilgan. Sanoyi(hunar) maktablarida esa me‘morchilik, najjorchilik(duradgorlik), muqovasozlik kabi kasblar bo‘yicha ta‘lim berilgan. Ushbu darslar mutlaqo bepul olib borilgan va har kuni peshindan keyin uch soat davomida tashkil etilgan. Shu qatorda har payshanba madaniy va siyosiy mavzularda ochiq leksiylar o‘tkazilgan.[Muxtor Bakir, 1918]

1918-yil 2-iyun kuni Musulmon xalq dorilfununining yuqori bosqichi dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti) ishga tushadi. Unda Abdurauf Fitrat ona tilidan, Kamol Shamsi arifmetika va nemis tilidan, Rahimboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilov san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvar Qori (dorilmuallimin mudiri–rektori ham edi) ona tilidan dars beradi[Dilnoza Jamolova, 2025].

Munavvar qori Abdurashidxonov, Murodxo'ja domla va Burhon Habib dorilfununning dasturini ishlab chiqqanlar. Unda musulmonlarning o'zlari bu o'quv yurti o'lkada o'qituvchilar yetishmasligi va ularga bo'lgan talab juda ham yuqoriligi uchun ochilgani, o'qish besh yilga mo'ljallanib, shundan bir yili tayyorlov bosqichi, qolgan to'rt yili asosiy bosqichlarga ajratilganini qayd qilganlar. Dorilfununda turk, tatar, ozarboyjon ziyolilari ham dars berishgan, buni tantanali ochilish marosimida Abdulsami qori e'tirof etib, “turk va shimollik qardoshlariga minnatdorchilik” bildirgan. Bu ziyolilar nafaqat ushbu hukumatning amaliy faoliyatida, balki, uning matbuotdagi targ'ibotida ham faol bo'lishdi[A.A.Yuldashev, 2025]. Bu muassasa tarkibida 1918-yil 31-maydan boshlab, “Xalq dorilfununi” gazetasi chiqadi. Bu gazetaning bosh muharriri tatar ziyolisi Muxtor Bakir edi.

Tatar ma'rifatparvari Muxtor Bakir Turkiston musulmon xalq dorilfununining Samarqand bo'limini ochish ishlariga boshchilik qilgan. 1918-yil Iyd al-Fitr(ramazon hayiti) bayrami munosabati bilan Toshkentdan Samarqandga tashrif buyurgan tatar ma'rifatparvari Muxtor Bakir musulmon yoshlari yig'inida Toshkentdagi musulmonlar sho'basi faoliyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Shu yig'inda Samarqandda ham shunday sho'ba tashkil etish taklifi ilgari suradi. Taklif bir ovozdan qabul qilinib, tashkilot komissiyasi tuziladi. Shu vaqtdan boshlab bu komissiya faoliyat olib borib, tez orada Samarqandda ham erkaklar, ayollar va katta yoshdagi aholi uchun ibtidoiy maktablar, san'at va hunar maktablari, qisqa muddatli muallima tayyorlash kurslari ochishni kelishib olinadi[Hoja Muin, 1918].

Qisqa vaqt ichida dorilfununning Samarqand bo'limi ochilib, Mahmudxo'ja Behbudiy rais, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Shokir Muxtoriy a'zo bo'lganlar. Shunga qaramay sovet hukumati Turkiston musulmon xalq dorilfununi faoliyatiga yo'l bermaydi. Besh yillik o'quv dasturiga mo'ljallangan dorilfunun oldiniga to'rt oylik o'quvga aylantiriladi. 1918-yilning sentabr o'rtalariga kelib esa butunlay tugatiladi. Shundan so'ng, dorilfununning Samarqand bo'limi faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi[Shavkat Miralimov, To'liqin Eshbek, 2019].

Ushbu ta'lim tizimi – “Xalq dorilfununi” musulmon xalq uchun beqiyos imkoniyatlar eshigini ochgan. Bu ilm va hunar xazinasini Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishida beqiyos rol o'ynaydi. Hunarli va boy millat hech qachon hor bo'lmaydi[R.Tursunov, 114]. Natijada, endi Turkiston yoshlar uchun muhim vazifa – bu imkoniyatlardan oqilona, mas'uliyat bilan

foydalanish bo'lgan. O'lkada, xususan, kambag'al oilalarning bolalari ushbu maskanlar orqali savodli, hunarli, ma'rifatli shaxsga aylanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan edi [Akmaljon Abdurasulov, 2022].

Xulosalar. Bu ta'lim tizimi musulmon aholining ilm va hunarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim qadam bo'ldi. Ayniqsa, kambag'al oilalarning bolalari o'z vaqtida ustalarning uyida yillab xizmat qilib, biror hunar o'rganish o'rniga, bu maktablar orqali qisqa vaqt ichida savod va hunar egasi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu "Xalq dorilfununi" Turkiston musulmonlari, xususan, quyi qatlam uchun ilm va hunar xazinasiga aylandi. Endilikda xalq uni chin ixlos bilan qadrlashi va undan to'liq foydalanishi zarur edi. Musulmon xalq dorilfununi o'lka musulmonlarni oliy ta'lim olishiga juda katta yordam bergan dargohdir. Bu ilm maskaniga xizmat qilgan ma'rifatparvarlardan bir Muxtor Bakir o'zining sermahsul faoliyati bilan tarix sahifalarida chuqur iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akmaljon Abdurasulov. Turkistonda vaqtli matbuot va matbaa ishlarini yuzaga kelishida tatar ma'rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalari // Kiber Leninka, 2022-yil. Oktabr.
2. Dilnoza Jamolova. Eng birinchi maktab ochgan va eng birinchi otilgan jadid – Munavvar qorining sharaflari yo'li // Oyina. 2025-yil. 21-may.
3. Hoja Muin. Xalq dorilfununi «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi. 1918-yil. 23-iyul.
4. Muxtor Bakir. Dorilfunun tashkiloti komissiyasida // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 16-aprel.
5. Muxtor Bakir. Musulmon xalq dorilfununi rasmiy ochilishi // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 16-may.
6. Muxtor Bakir. Toshkent musulmon xalq dorilfununi rasmiy kashodi(ochilishi) // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 18-may.
7. Muxtor Bakir. Xalq dorilfununi // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 21-may.
8. Shavkat Miralimov, To'liqin Eshbek. Birinchi o'zbek rektori // Uch ildiz. 2019-yil. 19-fevral.
9. Tursunov.R. "XX asr boshida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga jadidlarning qarashlari" monografiya. "Firdavs-shoh nashriyoti". Toshkent, 2024. 114-bet.
10. Yuldashev.A. (2025). Participation of Tatar intellectuals in cultural events in Turkestan (late 19th – early 20th centuries) // Historical Ethnology, 10(1), 31.
11. O'zMU. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.